

XALQARO INSON HUQUQLARI VA O'ZBEKISTON

Zebo Komilova G'ayrat qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Siyosatshunoslik” yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola xalqaro inson huquqlari tizimi va unda O'zbekistonning tutgan o'рни va faoliyatiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada Umumjahon Inson huquqlari deklaratsiyasi tamoyillari va shu asnoda, O'zbekistonda fuqaro huquqlari sohasida olib borilayotgan amaliy islohotlar va ularning natijalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Inson huquqlari, xalqaro jamoatchilik, BMT, Inson huquqlari xalqaro pakt va hujjatlari, OAV.*

Annotation: *This article is devoted to the international human rights system and the role and activities of Uzbekistan in it. The article also talks about the principles of the Universal Declaration of human rights and the practical reforms and their results in the field of civil rights in Uzbekistan.*

Keywords: *Human Rights, international community, UN, Human Rights international pact and documents, media.*

Аннотация: *Данная статья посвящена международной системе прав человека и роли и деятельности Узбекистана в ней. Также в статье рассматриваются принципы Всемирной декларации прав человека и, в связи с этим, практические реформы, проводимые в Узбекистане в области гражданских прав, и их результаты.*

Ключевые слова: *права человека, международное сообщество, ООН, Международный пакт и документы по правам человека, СМИ.*

KIRISH

Inson huquqlari - jamiyatning har bir a'zosiga tegishli bo'lgan, ularning qadri, erkinlik va imkoniyatlarini o'zida aks ettiruvchi huquqlar majmuasidir. Inson huquqlarini himoya qilish borasida davlat va tashkilotlar tomonidan turli qonun va qoidalar joriy qilingan bo'lib, ularning asosida 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" yotadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu inson huquqlariga doir barcha tamoyillarni o'zida jamlagan hujjatni ko'plab davlatlar, shu jumladan O'zbekiston ham amaliyotga tadbqiq etib kelmoqda.

Hozirgi davrda O'zbekiston inson huquqlarining qonuniy bazasini mustahkamlash, bu sohada tizimli ishlarni izchil yo'lga qo'yish, bu borada umumjahon andozasidan namuna olish va uning majburiyatlariga bo'ysunish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni keng ko'lamda amalga oshirmoqda. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi Prezident

Farmonida davlatimiz Inson huquqlari bo'yicha umumiy hisobda 80 dan ortiq xalqaro hujjatlar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga a'zoli haqida ma'lumotlar keltirilganligi so'zimizning isbotidir.

BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabrda Bosh Assambleyaning 217 A ko'rsatmasi asosida qabul qilingan bo'lib, uning Muqaddimasi ushbu so'zlar bilan boshlanadi: ".....inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini hisobga olib, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir". Bu jumlada keltirilgan so'z erkinligi inson huquqlari tizimining ajralmas qismidir. Xususan, mamlakatimizda fuqarolarning so'z erkinligi, Ommaviy Axborot Vositalarining shaffofligi, erkinligini yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha ishlar davom etmoqda. Birgina 2023-yil 30-apreldagi Referendum natijalariga ko'ra yangilangan Konstitutsiyamizning XV bobi ham OAVning erkinligiga bag'ishlangan. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, OAV jamiyatdagi muammolarning yoritish uchun minbar vazifasini o'tamoqda.

O'zbekiston va xalqaro hamjamiyatda inson huquqlarini ta'minlanishining tahlili.

Shu jumladan, O'zbekistonda inson huquqlari strategiyasining shakllantirilishi va uni amaliyotga tadbiiq etish maqsadida yo'l xaritasining ishlab chiqilishi ham sohada olib borilayotgan ishlarning amaliy isbotidir. Hamda O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha BMT ustavida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarish, bunga to'siq bo'lgan omillarni aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan Albatta, inson huquqlari sohasida yangilanishlarni fuqarolik jamiyati ishtirokisiz tasavvur qilish imkonsizdir. Ular bilan mutasaddilar o'rtasidagi ochiq muloqotlar esa muammolarni tez fursatda aniqlash va unga yechim topish imkonini beradi. Jamiyat va davlat o'rtasida inson huquqlari sohasida elchi vazifasini o'tayotgan va bu sohadagi o'zgarishlarga befarq bo'lmagan davlat xodimlari "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi ta'sis etilgan. Inson huquqlarini madh etish, bu sohadagi yillik ishlarni sarhisob qilish, kelajakda qilinishi lozim bo'lganlarini ko'rib chiqish maqsadida har yili O'zbekistonda ham 10-dekabr "Xalqaro inson huquqlari" kuni nishonlanib kelinmoqda.

Inson huquqlarining dahlsizligi bo'yicha ishlar olib borilayotgan paytda, o'z huquqlarini to'laqonli anglamagan va undan qanday foydalanishni bilmaydiganlar ham oramizda uchrab turadi. Shu tufayli, inson huquqlari bo'yicha ta'lim dasturlari yaratilishi, turli akademik adabiyotlarda bunga keltirilgan tasniflar orqali xalqqa inson huquqlari haqida ma'lumot yetkazish ularning huquqiy savodxonligini yaxshilashga zamin yaratmoqda. Bu esa ularni o'z huquq va majburiyatlarini to'liq anglab, jamiyatda o'z o'rnini topishga undaydi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda inson huquqlari buzilishi kuzatilgan holatlarda, turli huquqni himoya qiluvchi organlar tomonidan buni bartaraf etish uchun

barcha imkoniyatlar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmani lavozimi mavjud bo'lib, lavozimning egallagan shaxs bu sohaga oid qonun buzilishlari, inson huquqlarining poymol qilinishi yoki buning oldini olish, qonunbuzarlarni javobgarlikka tortish ishlarini amalga oshirish, sohadagi muhim o'zgarishlar va islohatlar uchun asosiy javobgar hisoblanadi. "Ombudsman – inson huquqlariga amal qilinishi nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan (yoki tayinlanadigan) mansabdor shaxs".

Shu o'rinda, asrlar davomida rivojlanib kelayotgan inson huquqlarining tarixiga e'tibor qaratsak. Inson huquqlarining rivojlanishini tadqiqotchilar uch bosqichda o'rganadilar. Bulardan birinchi bosqich "birinchi avlod" deb nomlanib, unda fuqarolarning siyosiy huquqlari shakllangan. Ikkinchi bosqichda asosan iqtisodiyotda inson huquqlari yuzaga kelgan. "Uchinchi avlod"da esa, "hamjihatlik huquqlari" ning paydo bo'lishi bilan tasniflanadi. Bu bosqichning ahamiyati tinchlikka va insoniyat o'zining moddiy va madaniy boyliklaridan foydalanishga bo'lgan huquqining rivojlanishidadir. Insoniyatning o'z huquq va manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bo'lgan uzoq muddatli kurashi shu davrda o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Xususan, inson huquqlarini ifoda etuvchi bir qator hujjatlar imzolandi. "Huquqlar to'g'risidagi bill", "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt" shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan inson huquqlari va burchlari, fuqaro erkinligi va uning kafolatlari belgilangan qismlari ham ushbu hujjatlarning bir ko'rinishidir. Konstitutsiya qabul qilinish jarayonining o'zi ham inson huquqlari O'zbekistonda qanchalik yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, Konstitutsiyaning yangilanishi bo'yicha aholi orasida so'rovnoma orqali qanday muhim jihatlarni Konstitutsiyada belgilash kerakligi haqida jamiyat fikrini o'rganish, hamda uni ta'sis etish uchun Referendum o'tkazishilishi, uning natijalariga ko'ra yangilangan Konstitutsiyaning kuchga kirishi jamiyatning ichki siyosatdagi o'rnini ko'rsatadi. Bu kabi jarayonlardagi ishtirok esa insonlarning o'z siyosiy huquqlaridan foydalanishga zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar.

Inson huquqlarini ta'minlash jamiyat tinchligi, mustahkamligining asosiy omilidir. Hamda fuqaro huquqlarini ifoda etish maqsadida davlat tomonidan ko'plab islohot olib borilmoqda, bu islohotlarning samaradorligi esa xalqaro hamkorlik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bog'liqdir. Albatta, bu jarayonlarda har bir jamiyat qatlami, o'z hayotiga befarq bo'lmagan holda, ishtirok etsa, bu islohotlar kutilgan natijani beradi va jamiyat farovonligi, millatlarning tinchligi, erkinligi mustahkamlanadi. Xalqaro inson huquqlarini ta'minlovchi tashkilotlar mamlakatlar, mintaqaviy institutlar bilan konvensiya va hujjutlar imzolashi orqali XXI asrda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar, terrorizm xavflari, xalqlarga ziyon yetkazadigan mojarolarni oldini olishgan bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. Lex.uz sayti
2. <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
3. Dunyo. Siyosat. Jamiyat. O'R Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. Guliston-2012. B-67.